

AVTOMAKTABLARDA AVTOTRANSPORT VOSITALARINI BOSHQARISHNI O'QITISHNING YO'L -TRANSPORT HODISASIGA NISBATAN TAHLILI

Jahanov Javohir ¹

¹ (TGTU)

joxajavoh9@gmail.com

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 14.06.2025

Revised: 15.06.2025

Accepted: 16.06.2025

KALIT SO'ZLAR:

Haydovchi, psixofiziologiya, inson omili, yo'l-transport hodisasi, xavfsizlik, tajriba, o'qitish tizimi, transport oqimi, charchoq, tezlik, statistika

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining avtomobillashuvi ortidan yuzaga kelayotgan yo'l harakati xavfsizligi muammolari, xususan haydovchilarning psixofiziologik holati va inson omilining yo'l-transport hodisalariga ta'siri tahlil qilinadi. Statistik ma'lumotlar asosida avtomobillar sonining ortishi, haydovchilik faoliyatining psixofiziologik jihatlari, tadqiqot metodlari (kuzatish, so'rovnoma, eksperiment) va yo'l harakati xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillar o'rganilgan. Shuningdek, 2018–2023 yillar davomida haydovchilarni o'qitish tizimidagi fanlar va soatlar bo'yicha o'zgarishlar solishtirilib, xulosa va takliflar bildirilgan.

KIRISH.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida avtomobil transport vositalarining soni tez sur'atlar bilan ortib bormoqda. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yil 1-yanvar holatiga respublikada jismoniy shaxslarga tegishli jami yengil avtomobillar soni 3 milliondan oshgan. Har 1000 nafar aholiga o'rtacha 87 ta yengil avtomobil to'g'ri kelayotgani transport vositalarining aholi hayotiga chuqur kirib kelganidan dalolat beradi. Transport vositalari sonining ko'payishi, albatta, yo'l harakati intensivligini oshirib, yo'l-transport hodisalari xavfini ham orttiradi.

Ushbu holatda inson omili, ayniqsa haydovchining psixofiziologik holati muhim rol o'ynaydi. Yo'l harakati qatnashchilarining xavfsizligini ta'minlash uchun ularning jismoniy va ruhiy holatini kompleks tahlil qilish zaruratga aylanmoqda. Psixofiziologiya sohasi orqali

haydovchilarning ish faoliyatidagi reaksiyalarini, diqqatini, stressga chidamliligini va boshqa muhim omillarni o'rganish mumkin.

Maqolada aynan shu jihatlar, ya'ni haydovchilarning psixofiziologik xususiyatlari, inson omili sababli yuzaga keladigan yo'l-transport hodisalari va ularni kamaytirish yo'llari, shuningdek haydovchilarni o'qitish tizimidagi o'zgarishlar haqida batafsil tahlil keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasining avtomobillashtirilishi va u bilan bog'liq ravishda harakat intensivligining oshishi barcha yo'l harakati qatnashchilarining faol va sust xavfsizligi masalalarini kompleks o'rganish zarurligiga olib keladi. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilning 1 yanvar holatiga Respublikamizda jismoniy shaxslarga tegishli jami yengil avtomobillar soni 3 051 734 tani tashkil etmoqda. Jismoniy shaxslarga tegishli yengil avtomobillar soni o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 284 608 taga oshgan. O'zbekiston Respublikasida har 1000 nafar doimiy aholiga o'rtacha 87 ta yengil avtomobil to'g'ri kelmoqda.

Turli xildagi haydovchilik faoliyatida mehnatning psixofiziologik xususiyatlarini o'rganish natijalari, mehnatning ishonchligi, samaradorligini oshirish va salomatlikni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun foydalaniladi. Psixofiziologiya - bu o'zgaruvchan fiziologik reaksiyalar jarayonida inson psixikasining qonuniyatlari haqidagi fan. Haydovchi faoliyatining psixofiziologiyasini faqat u amalga oshiriladigan sharoitlar haqida kerakli ma'lumotlarga ega bo'libgina anglash mumkin.

Transportda inson omili fanining asosiy tadqiqot metodlari quyidagilardan iborat: kuzatish, suhbat (so'rovnomma) va eksperiment.

Usullarning bunday bo'linishi ancha shartli. Usullar har doim bir-biriga bog'langan, bir-birini to'ldiradi va odatda bir vaqtning o'zida turli kombinatsiyalarda qo'llaniladi.

Haydovchining faoliyatini kuzatish uning harakatlarining o'ziga xos xususiyatlari, tayyorligi, ishlashi, o'zini tuta bilishi, qat'iyatliligi, hissiy barqarorligi, ehtiyotkorligi, nazorat harakatlarining tezligi va aniqligi haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishga imkon beradi. Shu bilan birga, kuzatuvchi ushbu usulning psixologik mohiyatini etarli darajada tushunishi va aniq belgilangan vazifani boshqarishi kerak.

Suhbat (so'rovnomma). Sinaluvchiga oldindan o'ylab topilgan savollar beriladi, ularning tartibi va shakli haydovchining individual xususiyatlariga va suhbatning o'ziga qarab o'zgaradi. Suhbat (yoki so'rov) usuli odatda yo'l transport xodisaning holatlarini va ularni sodir etishning zaruriy shartlarini o'rganish, yo'l harakati qoidalarini buzish sabablarini aniqlashda qo'llaniladi.

Tajriba. Jarayonlarning o'rganilayotgan ko'rsatkichlari yoki xarakteristikalar muntazam ravishda takrorlanadigan, ularning oqimining shartlari va olingan parametrlar qayd etiladigan tadqiqot usuli.

Laboratoriya, tabiiy (yoki to'liq masshtabli) va namunaviy tajriba turlari mavjud

Laboratoriya tajribasini o'tkazish turli xil psixofiziologik jarayonlarning borishini o'rganishga qaratilgan (masalan, sensorimotor reaksiyalar aniqligining harakat tezligining

o'zgarishiga bog'liqligi; idrok va diqqat o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatish; fikrlashning davomiyligiga ta'siri. natijalarni xotirada saqlash, irodaviy sifatlarining o'zgarishlarga ta'siri, hissiy barqarorlik va boshqalar).shuningdek, haydovchining turli yo'l harakati holatlaridagi xatti-harakatlari va uning faoliyatini simulyatsiya qilish. Bu usul ideal emas. Uning asosiy kamchiligi sun'iylikdir.

Laboratoriya sharoitida haydovchining haqiqiy ish sharoitlarini to'liq tiklash mumkin emas, chunki har doim zarur ichki hissiy fon yo'q.

Haqiqiy faoliyat sharoitida tabiiy tajriba o'tkaziladi. Tekshiriluvchi o'zining tadqiqot ob'ekti ekanligini ba'zan hatto bilmaydi, ba'zan esa unutib qo'yadi. Shuning uchun tabiiy tajriba natijasida olingan ma'lumotlar ob'ektiv va katta ahamiyatga ega.

Modelli tajriba - o'rganilayotgan hodisaga o'xshash hodisani sun'iy ravishda takrorlash. Agar namunaviy eksperimentning maqsadi haydovchilarni psixofiziologik tanlash bo'lsa, unda sub'ektning harakatlari haydovchining boshqarish paytidagi harakatlariga shakl jihatidan to'liq mos kelishi shart emas. Bunday holda, o'rganilayotgan psixik jarayonlarga haqiqiy faoliyatga mos keladigan talablarni taqdim etish asosiy va etarli bo'lishi kerak.

Modelli tajribani tashkil qilish uchun boshqa turdagi eksperimentlarda yaratish deyarli mumkin bo'lmagan boshqarish va harakatlanish uchun sharoit yaratish uchun kompyuter texnologiyalari va zamonaviy dasturiy ta'minotdan foydalaniladi.

Transport xavfsizligi sohasidagi asosiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, eng ko'p baxtsiz hodisalar va transport halokatlarning asosiy sababi inson omili, eng avvalo haydovchi va dispecherlar xatoliklaridir. Ma'lumki, transport vositalarini yoki infratuzilma elementlarini loyihalash va ishlab chiqarish xatoliklari ham insonlarning xatosidir, ammo haydovchilar va dispecherlarning xatolari ko'pincha halokatli holatlarga olib keladi. Avtotransport soxasi uchun insonlarning xatolari barcha baxtsiz hodisalarning 80-90% ga sabab bo'ladi. Bunda, voqealarning 57% da inson xatosi baxtsiz xodisa sodir bo'lishiga olib kelgan yagona omil xisoblanadi.

Haydovchilarning xatolariga turli xil salbiy omillar sabab bo'ladi: noqulay yo'llar, yo'l harakatining qoniqarsiz tashkil etilishi, avtomobilning texnik jihatdan mukammal emasligi yoki nosozligi, ob-havo sharoitining yaxshi emasligi, ko'rishning cheklanganligi, transport oqimining yuqori zichligi, shuningdek, avtotransportni yuqori tezlikda boshqarish. Biroq, favqulotda vaziyatning paydo bo'lishi va natijasi ko'p jihatdan haydovchining o'z vaqtida va to'g'ri harakatlariga va uning psixofiziologik holatiga bog'liq.

Asosiy "inson omili" tufayli sodir etiladigan yo'l-transport hodisalarining sabablari quyidagilardan iborat:

- asabiy-psixologik zo'riqish (23,6 %);
- diqqatning chalg'ishi (19,3 %);
- tezlikni oshirish va shoshqaloqlik (14,7 %);
- yo'l harakati sharoitida haydovchining qasddan, noqonuniy xatti-harakatlari (10,4 %);
- yo'l sharoitini oldindan ko'ra bilishdagi xato (9,4 %);

- qoniqarsiz ko'rinishga e'tibor bermaslik (9,1 %);
- yo'l harakati qoidalarini etarli darajada bilmaslik (8,3%);
- xavfni yetarlicha baholamaslik (6,2 %).


Og'ir oqibatli yo'l-transport hodisalarning katta qismi haydovchilarning charchoq natijasida rulda uxlab qolishlari bilan bog'liq.



Haydovchining ishonchligi muammosi inson omilining roli bilan bog'liq bo'lib, u insonning barcha jismoniy va aqliy xususiyatlarining yig'indisi va ularning haydovchining muvaffaqiyatli mehnat faoliyati ta'siri sifatida tushuniladi.

Quyida keltirilgan (2.1.1-2.1.3-rasmlarda) 2018-2022 yildagi va 2023 yildagi "B" va "BC" toifalar bo'yicha avtomobil haydovchilarini o'qitish fanlari soatlar kesimida tahlil qilindi.

Ushbu tadqiqotni tahlil qilish uchun 2018-2022 yildagi va 2023 yildagi o'quv predmetlari solishtirildi.

1-rasm. Avtomobil haydovchilarini o'qitish fanlari soatlar kesimida tahlili



2-rasm Avtomobil haydovchilarni o'qitish fanlar soat kesimida**3-rasm Avtomobil haydovchilarni o'qitish fanlar soat kesimida**

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. А.О. Хренников.Методы подготовки и повышения квалификации водителей методические рекомендации – Тамбов : Изд-во Тамб. гос. техн. ун-та, 2008. – 48 с. – 50 экз.
2. X. Q. Azizov. Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari. «Fanvatehnologiyalar», 2009 - 246 bet.
3. X.Q.Azizov «Yo'llarda xavfsiz harakatlanish asoslari» o'quv qo'llanma "TAYT", 2004 -71 bet
4. Jo'rayev Y.R. Ta'lim muassasalarida avtomobil haydovchilarni tayyorlash sifatini oshirish uslubini takomillashtirish // Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti "O'zMU xabarleri" ilmiy uslubiy jurnal-Toshkent, 2023 yil №1/2 -B.100-105
5. Jo'rayev Y.R. Avtomaktablarda va ta'lim muassasalarida avtomobil haydovchilarini tayyorlash tizimini takomillashtirish //"Ta'lim, fan va innovatsiya" ilmiy uslubiy jurnal-Toshkent, 2023 yil
6. Jo'rayev Y.R. Avtomobil haydovchilarini o'qitish usullarini takomillashtirish yo'llari // Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti "O'zMU xabarleri" ilmiy uslubiy jurnal-Toshkent, 2023 yil №1/5 -B.81-85
7. Juraev Y.R. The role of the cloud system and pedagogical training methods in the training of car drivers //Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal (WoS) May 15, 2023 vol 2. issue 5, year 2023
8. Jo'rayev Y.R. Ta'lim muassasalarida avtomobil haydovchilarni tayyorlash sifatini oshirish uslubini takomillashtirish // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. vol 2, issue 12. ISSN 2181-1784, P .467-475. (Scientific Journal Impact Factor = 6.1)
- 9.O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. Toshkent: Adolat, 1996. - 134b.
- 10.Савченко С.В Вождение автомобиля.Самоучитель.оучитель.3-е издание-М.Издательство "Налоговый вестник",2007-176 с. ISBN 5-93094-194-7
- 11.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 4 apreldagi "avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-190 sonli qaror.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 26 apreldagi "ta'lim muassasalarida yo'l harakati qoidalari targ'ibotini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 212-son qarori.

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidolari” 172-sonli qaror.

14. ¹ <https://darakchi.uz/uz/140255>

15. ¹ https://naukatv.ru/news/issledovanie_schity_na_dorogakh_napominayuschie_voditel_yam_o_riske_dtp_mogut_prinesti_vred

16. www.ziyonet.uz

17. www.mobiledevice.ru

18. www.ledtehnology.

19. www.shosh.uz vikipediya.

20. www.kun.uz muhim habarlar

21. <https://univerpubl.com/index.php/synergy/article/view/1551P.94>

